



**YURAK ISHEMIK KASALLIKLARINI OPERATIV DAVOLASHNING
ZAMONAVIY USULLARI**

Qoraboyeva Marjona Panji qizi, Geldiyev Behruz Bahodirovich

Termiz Iqtisodiyoti va Servis universiteti, Termiz sh, Farovon massivi 4B-uy,

e-mail: qoraboyevamarjona3@gmail.com

Annotatsiya

Yurak ishemik kasalligi – bu to'satdan paydo bo'lishi uchun xavfli kasallik. Bu kasallik tinch holatda ham to'sh suyagi orqasida paydo bo'luvchi kasallik bo'lib, kelib chiqishida yurak mushaklarida kislorod tanqisligi muhim rol o'ynaydi. Yurak ishemik kasalligi sabablari orasida: koronar arteriyalarning aterosklerozi, yog ' va xolesterin pilakchakalar sonining koronar qon tomirlarda faol ko'payishi tufayli ular bo'shlig'ining torayishi, qandli diabet, qondagi yuqori xolesterin miqdori avvalgi o'rinlarda turadi. O'tkir yuzaga keluvchi yurak ishemik kasalligi zudlik bilan jarrohlik davolashni talab qiladi chunki –yirik koronar tomirlar toliq bekilishi va ko'plab kardiomiotsitlar o'limi tufayli, miokard infarkti va oqibati o'lim bilan tugaydi.

Kalit so'zlar: Yurak ishemik kasalligi, ateroskleroz, qandli diabet, infarkt, koronar tomirlar, xolesterin, stress, jarrohlik, o'lim.

**СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОПЕРАТИВНОГО ЛЕЧЕНИЯ
ИШЕМИЧЕСКИХ БОЛЕЗНЕЙ СЕРДЦА**

Карабаева Марджона Панджи кизи, Гелдиев Бехруз Бахадирович

Термезский университет экономики и сервиса, Термезский ш, массив Фарован
4Б, дом, e-mail: qoraboyevamarjona3gmail.com

Аннотация

Ишемическая болезнь сердца — это опасное заболевание, которое может внезапно возникнуть. Это заболевание проявляется болью за грудиной даже в состоянии покоя, и в его возникновении важную роль играет дефицит кислорода в сердечной мышце. Среди причин ишемической болезни сердца на первом месте стоят: атеросклероз коронарных артерий, сужение их просвета из-за активного





увеличения количества жировых и холестериновых бляшек в коронарных сосудах, сахарный диабет и высокий уровень холестерина в крови. Остро возникшая ишемическая болезнь сердца требует немедленного хирургического вмешательства, так как полная закупорка крупных коронарных сосудов и гибель множества кардиомиоцитов приводит к инфаркту миокарда и может закончиться летальным исходом.

Ключевые слова: Ишемическая болезнь сердца, атеросклероз, сахарный диабет, инфаркт, коронарные сосуды, холестерин, стресс, хирургия, смерть.

MODERN METHODS OF SURGICAL TREATMENT OF ISCHEMIC HEART DISEASES

Abstract

Ischemic heart disease is a dangerous condition that can occur suddenly. This disease manifests as pain behind the sternum even at rest, and a lack of oxygen in the heart muscle plays a key role in its development. The main causes of ischemic heart disease include: atherosclerosis of the coronary arteries, narrowing of their lumen due to the active accumulation of fat and cholesterol plaques in the coronary vessels, diabetes mellitus, and high blood cholesterol levels. Acute onset of ischemic heart disease requires urgent surgical treatment, because complete blockage of large coronary vessels and the death of numerous cardiomyocytes can lead to myocardial infarction and result in death.

Keywords: Ischemic heart disease, atherosclerosis, diabetes mellitus, infarction, coronary vessels, cholesterol, stress, surgery, death.

Kirish. Yurakning ishemik kasalligi — [yurak-tomir sistemasining](#) keng tarqalgan kasalligi; miokard ishemiyasi va koronar qon aylanishining buzilishi bilan kechadi. Yurakning ishemik kasalligiga, asosan, koronar (toj) tomir arteriyalari aterosklerozi natijasida yurak muskullarida qon aylanishining yetishmay qolishi va shu tufayli yurakning qonga yolchimasligi sabab boʻladi. Yurakning ishemik kasalligiga stenogkardiya (dastlabki, muqim, nomuqim), miokard infarkti, infarktdan keying kardioskleroz, aritmik tur va yurak yetishmovchiligi kiradi. Yurakning ishemik kasalligi muntazam rivojlanib boruvchi ogʻir yurak xastaligi hisoblanadi. Yosh ulgʻaygan sari kasallik uchrashi koʻpayadi.

Klinikasi. Yurak ishemik kasallik klinik jihatdan bir xilda kechmay, dam zoʻrayib, dam bosilib turadi. Koʻpincha yurakning ishemik kasalligi zimdan kechib,






bemor o'zining shunday xavfli kasallikka chalinganini bilmay, shifokorga murojaat qilmay yuradi. Odatda, yurakning ishemik kasalligining dastlabki klinik belgilaridan biri — zo'riqish stenokardiyasi xuruji bo'lib, jismoniy ish bajarilganda ro'y beradi. Keyinchalik kasallik uzoq davom etishi, hatto yillab cho'zilishi mumkin. Ko'pincha zo'riqish stenokardiyasiga bir muncha vaqtdan keyin tinch holatda ham kuzatiladigan tinch holat stenokardiyasi hurujlari qo'shilishi mumkin.

Kelib chiqishi va rivojlanishi. Kishilarning yoshi, kasallikka irsiy moyillik, gipertoniya kasalligi, qandli diabet, semirib ketish, ichkilikka ruju qilish, kashandalik, kamharakat (gipodinamiya), jismoniy hamda ruhiy zo'riqish va boshqalar sabab bo'ladi. Kashandalar o'rtasida yurakning ishemik kasalligining nisbatan ko'p uchrashi kuzatilgan. Kasallikning rivojlanishida, ayniqsa, xolesterinning roli katta. Qonda xolesterin miqdorining oshib ketishi aterosklerozga sabab bo'ladi va bu yurakning ishemik kasalligi rivojlanish xavfini oshiradi.

Turlari. Yurak ishemik kasallikning xavfli omilini bartaraf etsa bo'ladigan va bartaraf etib bo'lmaydigan xillari bor. Masalan ko'krak qisishi (stenokardiya), miokard infarkti, insultni bartaraf etib bo'lmaydi; agar odam bu kasalliklar bilan bir marta og'rib o'tgan bo'lsa, yurakning ishemik kasalligi rivojlanish xavfi ko'proq bo'ladi.



Yurak ishemik kasalligining dastlabki bosqichi stenokardiya bo'lsa, miokard infarkti uning eng og'ir shaklidir. Stenokardiya bilan bemor uzoq vaqt yashashi mumkin, ammo dastlabki davrida (birinchi uch kun) 20—30% bemorda miokard infarkti kuzatiladi. Miokard infarktining klinik belgilari, odatda, stenokardiya belgilariga o'xshash bo'lib, faqat og'riq uzoqroq va kuchliroq davom etadi. Bunda dastlabki soatlarda yoq o'lim ro'y berishi yoki keyinchalik ham jiddiy asoratlar kuzatilishi mumkin. Infarktdan keying kardioskleroz, yurak aritmiyasi, yurak yetishmovchiligi aslida yurakning ishemik kasalligining asoratlari bo'lib, yurak tomir sistemasi kasalliklaridan bo'ladigan nogironlik va o'limning asosiy sabablaridir.






Yurakning ishemik kasalligiga gumon qilinganda darhol bemorni kasalxonagayotqizish zarur.

Kasallikning klinik belgilari. Kasallik tarixi, bemor shikoyatlari, perkussiya, auskultatsiya, umumiy ko'ruv, elektrokardiografiya, yurak muskullariga xos fermentlar va struktura elementlari (kreatinin fosfokinaza izofermentlari, mioglobin va boshqalar) hamda qon tahlili, exokardiografiya va boshqalar tekshiruv natijalariga qarab diagnoz qo'yiladi. Uni davolash terapevtik va jarrohlik usulida olib boriladi. Yurakning ishemik kasalligida parhezga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Ovqatning umumiy miqdori va kaloriyasini cheklab, vazni me'yorida saqlashga harakat qilish, badan tarbiya bilan shug'ullanish, mehnat va dam olishni uyg'unlashtirish, vrach ko'rsatmalariga beqamuko'st amal qilish lozim. Chekishni tashlash shart. Yurakning ishemik kasalligining oldini olish uchun gipertoniya kasalligi, qandli diabet va boshqalarni davolash zarur.

Davolash. Yurak ishemik kasalligini davolash miyokardning normal qon ta'minotini tiklash va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. Afsuski, faqat terapevtik muolajalar har doim ham samarali emas. Koronar arteriya stenozini bartaraf etilgandan so'ng, hayot sifati sezilarli darajada oshadi, ish qobiliyati tiklanadi, miyokard infarkti va to'satdan yurak o'limi xavfi sezilarli darajada kamayadi va umr ko'rish davomiyligi oshiriladi.



Xulosa. Yurak ishemik kasalliklari (YIK) bugungi kunda global sog'liq muammolaridan biri bo'lib, ularni operativ davolash bo'yicha zamonaviy usullar kardiologiya va yurak-jarrohlik sohasida katta yutuqlarga olib kelmoqda. Koronar arteriyalarni qayta tiklovchi operatsiyalar, ayniqsa koronar shuntlash (aorto-koronar shuntlash) va perkutan koronar intervensiyalar (stentlash), yurak mushaklariga qon yetkazib berishni yaxshilab, bemorlarning hayot sifatini oshirish va o'lim xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Minimal invaziv texnologiyalar, robotlashtirilgan operatsiyalar va yangi avlod dori bilan qoplangan stentlar bu yo'nalishdagi davolash





usullarini yanada mukammallashtirmoqda. Shu boisdan, YIKni davolashda zamonaviy operativ usullar nafaqat samarali, balki xavfsiz, kam invaziv va tez tiklanishga yo'naltirilgan bo'lib, bu sohaga innovatsion yondashuvlarni qo'llashni davom ettirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov A.G. Odam anatomiyasi. Toshkent. O'zME Davlat ilmiy nashriyoti. 2005.
2. Аҳмедов А.Г., Зиямудинова Г.Х. Одам анатомия, физиология ва патологикаси. Тошкент. 2010.
3. Аҳмедов А.Г., Расулов Х.А. Атлас анатомии человека. Ташкент. 2011.
4. Синельников Р.О. Атлас анатомии человека. В 4-х томах –М.: 2007.
5. Frank H., Netter M.D. Atlas of Human Anatomy. N.York. 2003.
6. Воробьева Е.А. Анатомия и физиология. Москва. 1988.
7. Қодиров У.З. Одам физиологияси. Тошкент. 1996.
8. Ҳақбердиев М.М. Патологик физиология. Тошкент. 2009.
9. Серов В.В., Ярыгин Н.Е. Подков В.С. [Патологическая анатомия / Атлас](#). Москва. 1988.

